

**VITAGEN TA'LIM ASOSIDA TALABALARING AXBOROT- ANALITIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH****Davletnazarova Dilnaz**

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Pedagika kafedrasи assistant o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15059578>

Annotatsiya. Ushbu maqolada vitagen ta'limi asosida talabalarning axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va metodlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi - vitagen ta'limining o'quv jarayonida axborot-analitik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini o'rganishdir. Shuningdek, maqolada bu kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim metodlarini samarali qo'llash, interaktiv yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etish muhimligi haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Vitagen ta'lim, texnologiya, axborot, kompetensiya, talaba, metod.

**DEVELOPMENT OF STUDENTS' INFORMATION AND ANALYTICAL
COMPETENCES ON THE BASIS OF VITAGEN EDUCATION**

Abstract. This article analyzes the main directions and methods of developing students' information and analytical competencies on the basis of vitagen education. The purpose of the study is to study the role and significance of vitagen education in the formation of information and analytical competencies in the educational process. The article also discusses the importance of effective use of educational methods, the introduction of interactive approaches and technologies in the development of these competencies.

Keywords: Vitagen education, technology, information, competence, student, method.

**РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ
СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ВИТАГЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация. В статье анализируются основные направления и методы развития информационно-аналитических компетенций студентов на основе витагенного образования. Целью исследования является изучение роли и значения витагенного образования в формировании информационно-аналитических компетенций в образовательном процессе. В статье также обсуждается важность эффективного использования образовательных методов, интерактивных подходов и внедрения технологий в развитии этих компетенций.

Ключевые слова: Витаген-образование, технология, информация, компетентность, студент, метод.

Zamonaviy ta’limda axborot-analitik kompetensiyalar ya’ni axborotni to‘plash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlari, talabalarni mustaqil fikrlashga va zamonaviy ilmiy-teknologik taraqqiyotga moslashishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Axborotlar asrida, o‘quvchilarning axborot va ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va amaliy masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda vitagen (integratsiyalangan) ta’lim tizimi asosida talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish yangi metodlar va yondashuvlarni joriy qilishga imkon yaratadi.

Axborot-analitik kompetensiyalarni rivojlantirishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar mavjud. Birinchi navbatda, talabalarning axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda integratsiyalangan ta’limning samaradorligi tasdiqlangan.

Masalan, O‘zbekistonning ta’lim tizimida informatika va texnologiyalarni o‘rgatish metodlari, shuningdek, pedagogik yondashuvlarning integratsiyalashuvi o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish va ishlab chiqish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, vitagen ta’limi orqali talabalarни faollashtirish va ularning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar, integratsiyalashgan ta’limni o‘rganishda, talabalarga turli fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatish orqali ularning umumiyligi dunyoqarashini kengaytirish va axborotni tahlil qilishdagi qobiliyatlarini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydilar.

“Vitagen” atamasi lotincha “*vita*” (hayot) va “*genesis*” (paydo bo‘lish, rivojlanish) so‘zlaridan olingan bo‘lib, “hayotiy tajriba asosida ta’lim olish” degan ma’noni anglatadi.

Ushbu texnologiyaning asoschisi A.S.Belkin hisoblanadi. Ushbu texnologiya XX asrning 90-yillarida shakillana boshlagan. Hozirgi kunda vitagen ta’limdan foydalinish bo‘yicha turli hil yo’nalishlarda olimlar tadqiqot ishini olib bormoqda.

Jumladan, mustaqil izlanuvchi F. Norbo‘taev ilmiy ishlarida “ta’limning samarali texnologiyasi sifatida vitagen ta’limdan foydalanishning ustuvorlik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Vitagen ta’lim talabalarning hayotiy tajribasidan foydalanish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bilan birga ularda amaliy tajribaga asoslangan bilimlarni hosil qilishdir.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari ulg‘aygan va hayotiy tajribaga ega mustaqil fikrga ega o‘quvchilar bo‘lganligi bois, texnologiyaning talabalar jamoasi bilan birlgilikda qo‘llash imkoniyatlari kengroq yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi” deb ta’kidlab o’tadi.[4]

Shuningdek, tadqiqotchi M.K. Pirniyazova “Vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompensiyalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyatda respondent-talabalarning ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borilishiga imkon beradigan individual xususiyatlar – pul mablag’lari bilan oqilona muomala qilish hamda tavakkal qila olish malakalariga egaliklarini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi” degan fikrlarni ilgari

suradi.[7] Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash uchun vitagen ta'limining turli metodlari o'rganiladi. Shuningdek, ta'limda informatika, matematik modellar, onlayn resurslar va simulyatsiyalar kabi texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligi o'rganiladi. Vitagen ta'limi integratsiyalashgan va interaktiv ta'limni o'z ichiga olgan yondashuv bo'lib, u talabalarini bir yaqtning o'zida bir nechta fanlarni o'rganishga jalb etadi. Bu yondashuv orqali talabalar nafaqat individual fanlar bo'yicha bilimlarni egallashadi, balki ular o'rtasida bog'lanishlarni ko'rishadi va real hayotdagi muammolarni hal qilishda analistik yondashuvni rivojlantiradilar. Vitagen ta'limining samaradorligi talabalarning fikrlash jarayonini yanada chuqurlashtiradi va ularning axborotni tahlil qilishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Talabalar guruhlarda ishlash orqali o'zaro fikr almashadilar, fikrlarini baham ko'radilar va umumiy xulosalarga keladilar. Shuningdek, onlayn resurslar, forumlar, vebinarlar va simulyatsiyalar yordamida o'quv jarayonini yanada faollashtirish mumkin.

Bu usullar talabalarini axborotni tahlil qilishda va undan foydalanishda yanada samarali bo'lishga yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining muhim qismiga aylangan. Ma'lumotlar bazalari, onlayn platformalar va ilmiy resurslar orqali talabalar axborotni yig'ish va tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

Masalan, talabalarga real vaqtida axborot tahlili, vizualizatsiya va statistika dasturlari orqali ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini berish orqali ularning kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Vitagen ta'limi orqali talabalarning axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Integratsiyalangan yondashuv orqali talabalar axborotni to'plash, tahlil qilish, sintez qilish va undan xulosalar chiqarishda ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa o'z navbatida, ularning tahliliy fikrlash va qarorlar qabul qilishda erkinlik va mustaqillikni oshiradi. Vitagen ta'lim texnologiyasi talabalar va o'quvchilar bilimini shakllantirishda hayotiy tajribaga asoslangan usullarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni amaliyatga tatbiq etish imkoniyatini ham yaratadi.

Vitagen ta'lim texnologiyasining amaliy ahamiyati qiyidagilardan iborat:

1. O'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Bunda tajribaga asoslangan o'qitish orqali talabalar ma'lumotni yaxshiroq eslab qoladi. Misol: Biologiya darsida talabalarga faqatgina nazariy bilim berish o'rniga, laboratoriya ishlarini bajartirish orqali jonli kuzatuvlari qilish imkoniyati yaratiladi.

2. Talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda muammoli vaziyatlar orqali o'qitish talabalarni tahlil qilish va yechim topishga o'rgatadi.

Misol: Iqtisodiy fanlarda real biznes-case'lar asosida muammolar berilib, talabalar ularni tahlil qiladi va o'z yechimlarini taklif etadi.

3. O'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bunda shaxsiy tajriba asosida bilim olish ta'lif jarayoniga qiziqishni oshiradi. Masalan: Chet tili o'qitishda talabalar hayotiy suhbatlar va rolli o'yinlar orqali amaliy muloqot qilishga o'rganadi.

4. Innovatsion va kreativ yondashuvni shakllantiradi. Bunda talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, chunki o'z tajribasiga asoslangan holda yangi g'oyalar yaratish ko'nikmasi shakllanadi. Masalan: Dasturlash fanida talabalar o'z kundalik hayotidagi muammolarni hal qiluvchi ilovalarni ishlab chiqishadi.

Xulosa o'mida shuni aytish joizki Vitagen ta'lif texnologiyasi talabalarning faqatgina bilim olishini emas, balki ularni real hayotga tayyorlashni ham maqsad qilgan samarali yondashuvdir. Ushbu texnologiya mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijodkorlik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lif tizimida vitagen texnologiyasidan foydalanish orqali o'qitish samaradorligi oshadi, talabalar bilimni mustahkam o'zlashtiradi va uni amaliyotga tatbiq eta oladi. Shuningdek, Vitagen ta'limi asosida talabalarning axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yondashuvlari, o'quvchilarning tahliliy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lif jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, interaktiv metodlarni joriy etish va real hayotdagi muammolarni yechishda talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, axborot-analitik kompetensiyalarini muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: "Ўзбекистон", 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятини кундалик қоидаси бўлиши керак. - Т.: "Ўзбекистон", 2017.
3. To'laganov, Sh., Tashmuhammadov, B. Integratsiyalangan ta'limning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.2020
4. Smith, J. The Role of Information-Analytical Competencies in Modern Education. Journal of Educational Science, 45(3), 2018. 210-223.

5. Williams, A. Developing Critical Thinking in Students Through Interactive Learning. International Journal of Education, 39(4), 2017. 45-60.
6. Norbo‘taev Farxod Maxsiddin o‘g‘li., “O‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim texnologiyalardan foydalanish”/Образование и инновационные исследования (2023 год №6) 189-bet).
7. Pirniyazova M. K. “Vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari”/ “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishlari va istiqbollari yoshlar nigohida” mavzusidagi respublika ilmiyamaliy konferensiya Toshkent – 2024. 67-bet
8. Saparbaev T Psixologiya teoriyası hám tariyxı (Psixologiya teoriyası) oqıw qollanba T. “Yosh avlod matbaa ”.2023
9. Saparbaev T. Mámbetiyarov SH Óspirim jasi balaları minez-qulqındaǵı krizislik jaǵdaylardiń pedagogikalıq-psixologiyalıq ózgeshelikleri (oqıw-metodikalıq qollanba). Nókis .2024